IMKONIYATI CHEKLANGAN TALABALARNING TA'LIM EHTIYOJLARI VA TADQIQOTLAR TAHLILI

Ko'charova Dildora Karim qizi,
Termiz davlat pedagogika instituti magistranti

Rezyume:

Maqola imkoniyati cheklangan talabalarning ta'lim ehtiyojlari va ularni qondirish yo'llari, shuningdek, O'zbekistonda inklyuziv ta'limning hozirgi holati va rivojlanish istiqbollarini tahlil qilindi. Nogironlikning ijtimoiy modeli, individual ta'lim rejalari (IEP), yordamchi texnologiyalar (ekran o'quvchilar, nutqni matnga aylantiruvchi dasturlar) va o'qituvchilar malakasining muhimligi xorijiy va mahalliy tadqiqotlar misolida yoritildi. O'zbekistonda infratuzilma yetishmovchiligi, ijtimoiy stigmalar, o'qituvchilarning yetarli tayyorgarligi yo'qligi va moliyaviy cheklovlar asosiy to'siqlar deb xulosa qilindi. Maqolada Finlyandiya, Kanada va Avstraliya tajribalari bilan solishtirilgan holda mahalliy muammolarga yechim sifatida infratuzilmani yaxshilash, o'qituvchilar malakasini oshirish, yordamchi texnologiyalarni joriy etish va jamiyatda ijobiy munosabat shakllantirish taklif etiladi.

Resume:

The article analyzes the educational needs of students with disabilities and ways to meet them, as well as the current state and development prospects of inclusive education in Uzbekistan. The social model of disability, individual educational plans (IEPs), assistive technologies (screen readers, speech-to-text programs), and the importance of teacher qualifications are highlighted using the example of foreign and domestic studies. It was concluded that the main obstacles in Uzbekistan are a lack of infrastructure, social stigma, insufficient teacher training, and financial constraints. Compared to the experience of Finland, Canada, and Australia, the article proposes improving infrastructure, professional development of teachers, introducing assistive technologies, and forming a positive attitude in society as a solution to local problems.

Резюме:

В статье анализируются образовательные потребности студентов с ограниченными возможностями здоровья и пути их удовлетворения, а также текущее состояние и перспективы развития инклюзивного образования в Узбекистане. Социальная модель инвалидности, индивидуальные образовательные планы (IEP), вспомогательные технологии (экранные ученики, программы преобразования речи в текст) и важность квалификации учителей были освещены на примере зарубежных и отечественных исследований. Основными препятствиями в Узбекистане были сделаны выводы о нехватке инфраструктуры, социальной стигме, недостаточной подготовке учителей и финансовых ограничениях. В статье предлагается улучшение инфраструктуры, повышение квалификации учителей, внедрение вспомогательных технологий и формирование позитивного отношения в обществе в качестве решения местных проблем в сравнении с опытом Финляндии, Канады и Австралии.

Imkoniyati cheklangan talabalarning ta'lim ehtiyojlari zamonaviy ta'lim tizimlarida eng dolzarb masalalardan biridir. Inklyuziv ta'limning joriy etilishi va nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim huquqlarini ta'minlash bo'yicha global tendensiyalar ushbu sohada chuqur tadqiqotlarni talab qilmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha muhim qadamlar qo'yilmoqda, xususan, 2020-yilda "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qarori qabul qilingan (Norma.uz, 2020). Ushbu hujjat 2020-2025-yillarda inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirishni nazarda tutadi, ammo infratuzilma yetishmovchiligi, ijtimoiy stigmalar va pedagogik kadrlar tayyorligi kabi muammolar hali ham mavjud.

Nogironlik tushunchasi jismoniy, aqliy, psixologik yoki hissiy faoliyatning cheklanishi sifatida ta'riflanadi, bu esa shaxsning ijtimoiy hayotda to'liq ishtirok etishiga to'sqinlik qiladi[1]. Florian Lani[2] o'z tadqiqotida nogironlikning ijtimoiy modeli muhimligiga e'tibor beradi, bunda nogironlik nafaqat shaxsning jismoniy yoki aqliy holati, balki jamiyatdagi jismoniy va ijtimoiy to'siqlar bilan ham belgilanadi. Bu model inklyuziv ta'limning asosiy paradigmasi sifatida qabul qilinadi, chunki u ta'lim muhitini barcha talabalar uchun teng va qulay qilishga qaratilgan.

Inklyuziv ta'lim barcha talabalarni, shu jumladan imkoniyati cheklanganlarni umumiy ta'lim muhitiga integratsiya qilishni maqsad qiladi. Ainscow Mel izlanishlarida inklyuziv ta'limning muvaffaqiyati o'qituvchilarning malakasiga va moslashuvchan ta'lim strategiyalariga bog'liqligini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv O'zbekistonda ham qo'llanilmoqda, ammo mahalliy tadqiqotlar infratuzilma va ijtimoiy stigmalarni asosiy to'siqlar sifatida ko'rsatmoqda.

Imkoniyati cheklangan talabalarning ta'lim ehtiyojlari ularning nogironlik turiga, individual xususiyatlariga va ta'lim muhitiga bog'liq. Mitchell David[3] o'z tadqiqotida ushbu ehtiyojlarni quyidagicha tasniflaydi: jismoniy moslashuv (masalan, rampalar, liftlar), o'quv materiallarini moslashtirish (Braille shrifti, audio kitoblar), psixologik yordam va ijtimoiy integratsiya. Ushbu ehtiyojlarni qondirish uchun individual ta'lim rejalari (ITR yoki IEP har ikkisi bir tushuncha) ishlab chiqiladi, bu esa har bir talabaning o'ziga xos ehtiyojlarini hisobga oladi.

O'zbekistonda imkoniyati cheklangan talabalarning ta'lim ehtiyojlari bo'yicha tadqiqotlar kam bo'lsa-da, Boyto'rayeva Dilrabo[4] aqliy zaif o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi bo'yicha pedagogik shart-sharoitlarni tahlil qilgan. Uning tadqiqoti maxsus ta'lim muassasalarida individual yondashuvning muhimligini ta'kidlaydi, ammo umumiy ta'lim maktablarida bunday yondashuv hali to'liq joriy etilmagan.

Xorijiy tadqiqotlarda esa imkoniyati cheklangan talabalarning ta'lim ehtiyojlari ko'proq yordamchi texnologiyalar va o'qituvchilar malakasi mazkaziy muammo sifatida o'rganilgan. Masalan, Edyburn Dave[5] yordamchi texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi transformatsion rolini tahlil qilib, ular nogiron talabalarga mustaqil o'rganish imkonini berishini isbotlagan. Bu texnologiyalar orasida ekran o'quvchi dasturlar, maxsus klaviaturalar va nutqni matnga aylantiruvchi dasturlar mavjud.

Inklyuziv ta'limning muvaffaqiyatli modellari ko'plab rivojlangan mamlakatlarda, xususan, Finlyandiya, Kanada va Avstraliyada keng qo'llanilmoqda. Finlyandiyada inklyuziv ta'limning muvaffaqiyati o'qituvchi-

1 Wehmeyer M. Assistive Technology and Self-Determination for Students with Disabilities: Doctoral dissertation in pedagogical and psychological sciences – Lawrence, 2009. –P.23.
2 Florian L. The SAGE Handbook of Special Education. – London: SAGE Publications, 2014. – P. 45.
3 Mitchell D. What Really Works in Special and Inclusive Education. –London: Routledge, 2014. – P.89.
4 Boyto'rayeva D. Aqli zaif o'quvchilarni ijtimoiy moslashtirishning pedagogik sharoitlari. // Pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy jurnal, 2021, 3-son. –B. 56.
5 Edyburn D. Assistive Technology and Students with Disabilities. // Journal of Special Education Technology, Volume: 28, Thousand Oaks, SAGE Publications, 2013. – P. 23

lar tayyorligi va individual yordamga asoslangan[6]. Finlyandiya maktablarida har bir talaba uchun individual ta'lim rejasi tuziladi va maxsus ehtiyojli talabalar uchun yordamchi o'qituvchilar jalb qilinadi.

Kanadada inklyuziv ta'limning muvaffaqiyati jamiyatning faol ishtirokiga bog'liq. Hutchinson Nancy[7] o'z izlanishida jamiyat tashkilotlari va ota-onalarning inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlashdagi rolini tahlil qilgan. Uning tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy stigmalarni yo'q qilish uchun maktablar va mahalliy hamjamiyatlar o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

Hindistonda inklyuziv ta'lim infratuzilma yetishmovchiligi va ijtimoiy stigmalarga duch kelmoqda, ammo jamiyat tashabbuslari orqali sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. O'zbekistonda ham shunga o'xshash muammolar mavjud bo'lib, ularni hal qilish uchun mahalliy hamjamiyatlar va nodavlat tashkilotlarning faol ishtiroki zarur.

Yordamchi texnologiyalar imkoniyati cheklangan talabalarning ta'lim jarayoniga kirishini tubdan o'zgartirdi. Wehmeyer Michael[8] o'z dissertatsiyasida yordamchi texnologiyalarning talabalarning mustaqilligini oshirishdagi rolini tahlil qilgan. Uning tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, ekran o'quvchilar, maxsus sensorli ekranlar va nutqni tanish dasturlari talabalarga o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirish imkonini beradi.

O'zbekistonda yordamchi texnologiyalardan foydalanish hali boshlang'ich bosqichda bo'lib, asosan, maxsus ta'lim muassasalarida qo'llanilmoqda. Fozilova Madinabegim[9] aqliy zaif bolalarning ta'lim jarayonida raqamli vositalardan foydalanishni tahlil qilib, ularning samaradorligini ta'kidlagan. Ammo umumiy ta'lim maktablarida bunday texnologiyalarni joriy etish uchun moliyaviy va texnik resurslar yetishmaydi.

Inklyuziv ta'limning muvaffaqiyati o'qituvchilarning malakasiga bevosita bog'liq. Forlin Chris o'z tadqiqotida o'qituvchilarning maxsus ehtiyojli talabalar bilan ishlash uchun maxsus tayyorgarlikdan o'tishi zarurligini ta'kidlaydi[10]. Finlyandiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning doimiy malaka oshirish kurslari inklyuziv ta'limning sifatini sezilarli darajada oshiradi.

O'zbekistonda o'qituvchilarning inklyuziv ta'lim bo'yicha tayyorgarligi cheklangan. Ashurov Baxtiyor va Razokova Nargiza[11] aqliy zaif bolalarga matematikani o'qitish xususiyatlarini tahlil qilib, o'qituvchilarning maxsus pedagogik ko'nikmalarga ega bo'lishi zarurligini ta'kidlagan. Ushbu tadqiqot O'zbekistonda maxsus ta'lim muassasalarida ishlaydigan o'qituvchilar uchun qo'shimcha treninglar zarurligini ko'rsatadi.

Imkoniyati cheklangan talabalarning ta'lim ehtiyojlari bo'yicha xorijiy tadqiqotlar asosan yordamchi texnologiyalar, o'qituvchilar tayyorligi va ijtimoiy integratsiyaga qaratilgan. Masalan, Avstraliyada Sharma Umesh[12] o'z dissertatsiyasida o'qituvchilarning inklyuziv ta'limdagi munosabatini tahlil qilib, ularning ijobiy munosabati talabalarning o'quv muvaffaqiyatiga ta'sir qilishini isbotlagan.

Bundan tashqari, O'zbekistonda ham inklyuziv ta'limning turli yo'nalishlarida dissertatsiyalar himoya qilingan. Bulardan ayrimlarini tahlil etish o'rinlidir:

L.Sh.Nurmuhammedova[13]ning "Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari" ilmiy tadqiqotlari doirasida oilada nogiron farzandi bor ota-onalarning o'ziga xos xususiyatlari, qiyinchiliklari va ijtimoiy-pedagogik, psixologik ko'rsatmalarga muhtojligi tahlil qilingan va bir qator ilmiy natijalar olingan. Nogiron shaxsning o'ziga xizmat ko'rsatish, mustaqil harakatlanishi, mo'ljal olish, muomala qilish, o'z xulqini nazorat qilish, mehnat faoliyatini o'rganish yoki mashg'ul bo'lish qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotishi, uni ijtimoiy muhofaza qilish choralarini amalga oshirish zaruriyatini ko'rsatadi. Insonning nogiron bo'lib qolgan paytida shakllangan shaxsiy xususiyatlariga insonning o'zi uchun, uning hayolida yuz beradigan hodisalar uchun javobgarligini anglashga bog'liq.

M.P.Hamidova tomonidan olib borilgan "Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar so'z boyligini oshirishning korretsion-pedagogik asoslari" nomli tadqiqot ishida umum va maxsus pedagogik tadqiqotlar asosida aqli zaif bolalarning nutqini ko'rikdan o'tkazish metodlari yaratilgan. Bolalarni ko'rikdan o'tkazish natijasida aqli zaif bolalar nutqining rivojlanmaganlik mezonlari ishlab chiqilgan. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning predmetlar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, hissiy-irodaviy sohalarini jalb etish bilan bilishga qiziqish va nutqiy motivatsiyani kuchaytirishga qaratilgan korreksion-pedagogik ish mazmuni va usullari ishlab chiqilgan.

D.Nazarova[14] tomonidan maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy ishida ilk bor maktabgacha ta'limda o'quvchidagi zaif eshituvchi bolalarning nutqiy rivojlanish darajasini tadqiq qilish metodikasining moslashtirilgan varianti, maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirishning mazmuni, yangi interfaol usullari hamda shakllari, o'rganilayotgan bolalarning umumiy rivojlanishini ta'minlashda ularning o'ziga xos rivojlanish omilidan kelib

6 Sahlberg P. Finnish Lessons: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? – New York: Teachers College Press, 2011. –P. 78.
7 Hutchinson N. Inclusion of Exceptional Learners in Canadian Schools. – Toronto: Pearson Education, 2007. – P. 112.
8 Wehmeyer M. Assistive Technology and Self-Determination for Students with Disabilities: Doctoral dissertation in pedagogical and psychological sciences – Lawrence, 2009. – P. 134.
9 Fozilova M.Y. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning ruhiyati. // Pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy jurnal, 4-son, 2020. – B.67.
10 Forlin C. Teacher Education for Inclusion. // International Journal of Inclusive Education, Volume: 14, – London, Taylor & Francis, 2010. – P.56.
11 Ashurov B. I., Razokova N.K. Aqli zaif bolalarga matematikani o'qitish xususiyatlari. // Pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy jurnal, 2021, 6-son. – B.45
12 Sharma U. Changing Pre-Service Teachers' Attitudes towards Inclusion: Doctoral dissertation in pedagogical sciences – Melbourne, Monash University, 2012. – P.156.
13 Nurmuhammedova L. Sh. Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari. Ped.fan.nomz...diss. – Toshkent, 2005. – 134 b.
14 Nazarova D. va boshqalar. Surdopedagogika. Darslik. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2019. – 419 b.

chikib, nutqini keng qamrovli rivojlantirish tizimi ishlab chiqilgan va asoslab berilgan.

F.Mirzayeva[15]ning "Jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash va ularni kasb-hunarga o'rgatish metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi dissertatsiya ishida quyidagi ilmiy yangiliklarga erishilgan:

-jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ijtimoiy, psixologik va

kasbiy moslashuv muammolariga qaratilgan inklyuziv ta'limning interfaol

muloqot, hamkorlik, loyihalash va baholashdan iborat didaktik imkoniyatlari aniqlangan.

-jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilarni kasb-hunarga o'rgatish

modeli maxsus fanlar integratsiyasini ta'minlash orqali ijtimoiy moslashuvni ta'minlashga qaratilgan o'quv me'yorlari va jarayonlarni optimallashtirish hamda o'qitish natijalarining tahlili asosida takomillashtirilgan;

-jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilarni kasb-hunarga o'rgatish

o'quv mazmunining umumdidaktik tamoyillari asosida "Ijtimoiy moslashuv" o'quv modulining axborot-metodik ta'minoti ishlab chiqilgan;

-jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilarning motivatsion, refleksiv va

kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi maxsus fanlarni integrativ-modulli yondashuv va o'quv modullari orasidagi uzviylikni ta'minlash asosida takomillashtirilgan.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun quyidagi muammolar mavjud:

1. Infratuzilma yetishmovchiligi: Ko'pgina maktablarda rampalar, liftlar va maxsus jihozlar mavjud emas.

2. Ijtimoiy stigmalar: Jamiyatda nogironlikka nisbatan salbiy stereotiplar hali ham saqlanib qolmoqda.

3. O'qituvchilar tayyorligi: O'qituvchilarning aksariyati inklyuziv ta'lim bo'yicha yetarli malakaga ega emas.

4. Moliyaviy cheklovlar: Yordamchi texnologiyalar va maxsus jihozlarni sotib olish uchun yetarli mablag' ajratilmaydi.

Imkoniyati cheklangan talabalarning ta'lim ehtiyojlarini qondirish va inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun quyidagilar taklif etiladi:

1. Infratuzilmani yaxshilash: Maktablarda rampalar, liftlar va maxsus jihozlarni o'rnatish uchun davlat dasturlari kengaytirilishi kerak.

2. O'qituvchilar malakasini oshirish: Inklyuziv ta'lim bo'yicha doimiy treninglar va xalqaro tajriba almashuv dasturlari tashkil etilishi lozim.

3. Yordamchi texnologiyalarni joriy etish: Ekran o'quvchilar, audio kitoblar va nutqni tanish dasturlari umumiy ta'lim maktablarida keng qo'llanilishi kerak.

4. Ijtimoiy stigmalarni yo'q qilish: Nogironlikka nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish uchun ommaviy axborot vositalari va jamoat tashkilotlari faol jalb qilinishi lozim.

5. Tadqiqotlarni kengaytirish: Inklyuziv ta'limning samaradorligini oshirish uchun mahalliy va xalqaro miqyosda tizimli ilmiy tadqiqotlar olib borilishi kerak.

Imkoniyati cheklangan talabalarning ta'lim ehtiyojlari zamonaviy ta'lim tizimlarining eng muhim masalalaridan biridir. Inklyuziv ta'limning muvaffaqiyati infratuzilma, o'qituvchilar malakasi, yordamchi texnologiyalar va jamiyatning faol ishtirokiga bog'liq. Xorijiy tadqiqotlar, xususan, Finlyandiya va Kanada tajribasi shuni ko'rsatadiki, tizimli yondashuv va doimiy malaka oshirish inklyuziv ta'limning samaradorligini oshiradi. O'zbekistonda bu sohada sezilarli yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, infratuzilma yetishmovchiligi, ijtimoiy stigmalar va o'qituvchilar tayyorligi kabi muammolar hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish uchun davlat, nodavlat tashkilotlar va jamiyatning hamkorligi zarur. Kelajakda inklyuziv ta'lim bo'yicha tizimli tadqiqotlar va xalqaro tajriba almashuvi ushbu sohada muvaffaqiyatli natijalarga erishishga xizmat qiladi.

15 Мирзаева Ф. Жисмоний имконияти чекланган ўқувчиларнинг ижтимоий мослашувини таъминлаш ва уларни касб-ҳунарга ўргатиш методикасини такомиллаштириш ("Таянч-ҳаракат тизими бузилган ўқувчилар"ни интегратив-модулли ёндашув асосида касбга тайёрлаш мисолида): педагогика фан. фалсафа докт... дис… – Т. 2018. – 140 б.